

TRANSLITERATION AND PRACTICAL TRANSCRIPTION IN MODERN UZBEK

Zokhid Otaboyevich JUMANIYOZOV

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Urgench State University
Urgench, Uzbekistan

Sanzhar Ruzikulovich ISLAMOV

Doctoral student
University of Munster
Munster, Germany

ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA TRANSLITERATSIYA VA AMALIY TRANSKRIPTSIYA

Zoxid Otaboyevich JUMANIYOZOV

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Urganch davlat universiteti
Urganch, O'zbekiston

Sanjar Ro'ziqulovich ISLOMOV

Doktorant
Myunster universiteti
Myunster, Germaniya

ТРАНСЛИТЕРАЦИЯ И ПРАКТИЧЕСКАЯ ТРАНСКРИПЦИЯ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Захид Атабаевич ДЖУМАНИЯЗОВ

Кандидат филологических наук, доцент
Ургенчский государственный университет
Ургенч, Узбекистан Zohid@urdu.uz ORCID: 0009-0000-5316-594X

Санжар Рузикулович ИСЛАМОВ

Докторант
Мюнстерский университет
Мюнстер, Германия islomov@tersu.uz ORCID: 0000-0002-1746-9046

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Jumaniyozov Z.O., Islomov S.R. Zamonaviy o'zbek tilida transliteratsiya va amaliy transkripsiya. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 3. — B. 2-45.

<https://doi.org/10.36078/1710323113>

Received: December 14, 2024

Abstract. This article examines the issues and methods of transliteration and transcription of Uzbek proper nouns, names of people, places, and institutions into foreign languages, particularly into English and German, and vice versa, the transliteration of foreign proper nouns into Uzbek. It also analyses the influence of the Russian language and Cyrillic script transliteration traditions on the official transliteration of Uzbek proper names into English in official documents, and highlighting the need for modern standardization. Key problems identified include the transliteration of certain unique Uzbek letters without adherence to existing international transliteration standards (such as ISO 9:1995, ALA-LC) and the absence of unified transliteration rules for the Uzbek language. The


Accepted: February 17, 2025

Published: February 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



article provides regulatory recommendations for developing national transliteration norms based on the ISO 9:1995 international standard and for disseminating existing international transliteration tables for alphabets of Uzbek language to the academic community and the wider public. Additionally, the article offers a practical analysis of the transcription of Uzbek proper names into modern German and of foreign proper names into modern Uzbek, based on materials from Uzbek and German mass media. The findings summarize the current status quo of practical transcription in Uzbek language practice and present proposals for its harmonization.

Keywords: transliteration; practical transcription; proper nouns; Uzbek alphabet; Cyrillic-Latin; ISO 9:1995 international standard; language policy; normative recommendations.

Annotatsiya. Maqolada o'zbekcha atoqli otlar, shaxs, joy, muassasa nomlarining chet tillariga, ayniqsa, ingliz va nemis tillariga, aksincha, xorijiy atoqli otlarni o'zbek tillariga transliteratsiya va transkripsiya qilishdagi muammolar hamda usullar tahlil qilingan. Shuningdek, rasmiy hujjatlardagi o'zbekcha atoqli otlarning ingliz tiliga rasmiy transliteratsiyasi amaliyotida rus tili va kirill alifbolari transliteratsiya an'alarining ta'siri va zamonaviy standartlashtirish ehtiyoji izohlangan. Asosiy muammolar sifatida bunda o'zbek tilining o'ziga xos bir qator harflarining amaldagi xalqaro transliteratsiya standartlariga (ISO 9: 1995, ALA-LC) amal qilmasdan transliteratsiya qilinishi, o'zbek tili uchun yagona transliteratsiya qoidalarining mavjud emasligi ko'rsatilgan. Maqolada ISO 9: 1995 xalqaro standartlariga asoslangan milliy transliteratsiya me'yorlarini ishlab chiqish, o'zbek tili alifbolari uchun mavjud xalqaro transliteratsiya jadvalarini ilmiy hamjamiyat va keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha me'yoriy tavsiyalar keltirilgan. Bundan tashqari, maqolada o'zbekcha atoqli otlarning zamonaviy nemis tili hamda xorijiy tillardan olingan atoqli otlarning zamonaviy o'zbek tilidagi amaliy transkripsiyalari o'zbek va Germaniya OAV materiallari asosida amaliy tahlil qilingan. Mazkur tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek tili amaliyotidagi amaliy transkripsiyaning *status quo* holati umumlashtirilib, tavsiflangan hamda uni muvofiqlashtirish borasida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: transliteratsiya; amaliy transkripsiya; atoqli otlar; o'zbek alifbosi; kirill-lotin; ISO 9: 1995 xalqaro transliteratsiya standarti; til siyosati; me'yoriy tavsiyalar.

Аннотация. В статье исследуются проблемы и методы транслитерации и транскрипции узбекских собственных имён, названий лиц, мест и учреждений на иностранные языки, особенно английский и немецкий, а также обратную транслитерацию и транскрипцию иностранных собственных имён на узбекский язык. Также рассматривается влияние русских языковых и кириллических традиций транслитерации в официальных документах при официальной передаче узбекских собственных имён на английский язык, а также необходимость современного стандартизирования. Основными проблемами указываются транслитерация специфических букв узбекского языка без соблюдения действующих международных стандартов (ISO 9:1995, ALA-LC), а также отсутствие единых правил транслитерации для узбекского языка. В статье предлагаются нормативные рекомендации по разработке национальных стандартов транслитерации на основе

международного стандарта ISO 9:1995, а также по доведению существующих таблиц международной транслитерации для алфавитов узбекского языка до научного сообщества и широкой общественности. Кроме того, в статье проводится практический анализ иностранных собственных имён, транскрибированных на современный узбекский язык, и узбекских имён, переданных на современный немецкий язык, на основе материалов СМИ Узбекистана и Германии. По результатам анализа обобщается текущее состояние практической транскрипции в узбекском языке и предлагаются меры по её гармонизации.

Ключевые слова: транслитерация; практическая транскрипция; имена собственные; узбекский алфавит; кириллица-латиница; международный стандарт транслитерации ISO 9:1995; языковая политика; нормативные рекомендации.

Kirish

Internet tarmog'ining turli imkoniyatlari, texnik taraqqiyot, globalizatsiya hamda migratsiya jarayonlari natijasida ilgari tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada turli madaniyatlar, etnik guruhlar, xalqlar va tillar bevosita yoki bilvosita bir-biri bilan aloqaga kirishmoqda. Tarixan til aloqalari garchi yangilik bo'lmasa-da, ularning o'zaro aloqaga kirishlari uchun talab qilingan birlamchi shart-sharoitlar, jumladan, bevosita geografik yaqinlik, xalqlar hamda guruhlarining turli mazmundagi to'g'ridan to'g'ri aloqalari, bugungi kunga kelib o'z ahamiyatini yo'qotdi. Shu jihatdan bugungi kunda o'zaro munosabatga kirishayotgan tillar konstellatsiyalarini ikkilanmasdan o'ziga xos deb atash mumkin, bu holat milliy tillar hamda tegishli mas'ul muassasalar oldiga normativ me'yorlar va standartlashtirish bo'yicha muayyan choralar qabul qilish vazifasini qo'yimoqda.

Til tarixiga nazar tashlansa, turli madaniyatlar, xalqlar yoki etnik guruhlar bilan bo'lgan aloqalar natijasida tillar, bir tomondan, boshqa tillardan so'zlar qabul qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'z so'zlarini boshqa tillarga bergan. Natijada bugungi kunda dunyo bo'ylab mutlaqo sof, ya'ni boshqa tillar ta'siriga uchramagan tillarni topish deyarli imkonsiz [Jomonov 2014:41]. Boshqa tillardan kirib kelgan bunday so'zlar tilshunoslikda "o'zlashgan so'zlar" deb yuritiladi. O'zlashmalarning qabul qiluvchi til tizimiga qay darajada moslashganligiga qarab, ular yanada batafsilroq tasniflanishi mumkin. Misol uchun nemis tilida fonetik, grammatik yoki orfografik jihatdan to'liq moslashgan so'zlar tor ma'nodagi "o'zlashmalar" (Entlehnungen yoki Lehnwörter) deb atalsa, tovush, yozuv va fleksiya jihatidan qabul qiluvchi til tizimiga to'liq moslashmagan bo'lsa-da, lug'at tarkibiga kirgan so'zlar esa "begona so'zlar" (Fremdwörter) deb yuritiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zlashmalar va begona so'zlar orasidagi chegaralar aniq emas, ularning farqlanishi har bir tilning o'z me'yoriy qoidalari asosida belgilanadi. Qabul qiluvchi tilga assimilyatsiya hamda tarqalganlik darajasiga ko'ra o'zlashma so'zlarni quyidagicha tavsiflash mumkin. Dastlabki bosqichda bunday o'zlashgan so'zlar "neologizm" deb ataladi, ya'ni bu so'zlar ko'plab so'zlovchilar tomonidan yangi deb qabul qilinadi va tegishli lug'atlarda uslubiy jihatdan yangi deb ko'rsatiladi. Muayyan vaziyat yoki

kontekstda bir martalik ishlatilgan yangi soʻzlar esa “ad-hoc birliklar” yoki “okkazonalizmlar” deb ataladi. Ular neologizmlarning boshlangʻich shakli hisoblanadi, chunki bu soʻzlar takror-takror qoʻllanilishi va ishlatilish darajasi ortishi bilan asta-sekin neologizmga, keyinchalik esa oʻzlashgan soʻzga aylanishi mumkin. Biroq agar bunday okkazonalizmlar til tizimida mustahkam oʻrnasha olmasa, vaqt oʻtib unutiladi [Bussmann & Lauffer 2008: 6, 164–168, 203–204, 396; Abjalova & Geldiyeva 2022: 47–50]. Oʻzlashma soʻzlarning aynan qanday til qonun-qoidalari asosida qabul qilinishi ushbu maqola doirasida koʻrilmaydi. Klassik oʻzlashmalarga geografik nomlar, turli iqtisodiy, siyosiy va madaniy tashkilotlarning nomlari kirib, bunda oʻzlashmalar har bir milliy tilda yagona va standartlashtirilgan yozish hamda talaffuz qilish qoidalari asosida mustahkamlangan boʻladi. Shuni taʼkidlash kerakki, koʻplab oʻzlashmalar qabul qiluvchi tillarda shunday darajada moslashib ketganki, ularni aksariyat foydalanuvchilar oʻzlashgan soʻz deb emas, balki oʻz qatlamdagi soʻz sifatida qabul qiladi. Masalan, nemis tilidagi koʻplab lotincha soʻzlar yoki oʻzbek tilidagi koʻplab arabcha va forsa soʻzlarni, albatta, tilshunos mutaxassislar bundan mustasno, oddiy koʻz bilan ajratish mushkul masala.

Biroq muammo boshqa tildagi atoqli otlar, soʻzlar, gaplar va matnlarni boshqa milliy tilga yoki bir yozuv tizimidan boshqasiga toʻgʻri va aniq tarzda koʻchirish zarurati paydo boʻlganda yuzaga chiqadi. Bunday holatlarda asosan ilmiy, lekin baʼzida boshqa sabablar tufayli ularning tarjimasi yoki semantik mazmuni yoki ularni til tarkibiga doimiy oʻzlashtirish emas, balki aynan soʻzma-soʻz shaklning oʻzi, yaʼni aniq yozilish shakli muhim ahamiyat kasb etadi. Masalaning dolzarbligi va murakkabligi agar Germaniyada oʻzbek tili va Oʻzbekiston bilan bogʻliq ilmiy va publitsistik materiallarga yoki shunchaki oʻzbek matbuotida xorijiy tillardagi atoqli otlarning berilishiga nazar tashlansa, yaqqol koʻrinadi. Jumladan, ayniqsa oʻzbekcha atoqli otlar, kishilar nomlari, atamalar va tushunchalarning nemis tiliga va aksincha xorij tilidagi atoqli otlarning oʻzbek tiliga noizchil tarzda, yaʼni yagona qoidaga asoslanmagan holda koʻchirilishini kuzatish mumkin [Islomov 2024: 235–240].

Shuningdek, oʻzbek ommaviy axborot vositalarida ham bu boradagi muammolarga bagʻishlangan tanqidiy maqolalarni uchratish mumkin. Jumladan, mazkur maqolalar xorijiy tillardagi atoqli otlarning oʻzbekchaga, yoki aksincha, oʻzbekcha atoqli otlarning ingliz tiliga koʻchirilishidagi muammolarni koʻtarib chiqadi va bu masalada til siyosati bilan shugʻullanuvchi muassasalar tomonidan aniqlik kiritilishi va yagona meʼyorlar belgilanishini talab qiladi¹.

Mazkur muammo kundalik hayot va keng jamoatchilik uchun amaliy ahamiyatga ega boʻlganligi sababli, u koʻpincha publitsistik va amaliy nuqtayi nazardan, mualliflarning lisoniy kompetensiyasiga qarab,

¹ Taqqoslang: Zuhra Abduhalimova: SOS: Oʻzbek tilidagi xorijiy atoqli nomlar va soʻzlar imlosida hanuz yakdillik yoʻq. www.kun.uz online platformasida. 17.06.2022. URL: <https://kun.uz/53506065?q=%2F53506065> (Murojaat sanasi: 11.10.2024); Mahbuba Ergasheva: “Ismlarimiz rus tiliga moslashtirilgani bizni noqulay ahvolga soladi” – Kanadadagi oʻzbek. www.kun.uz online platformasida. URL: 11.10.2024. <https://kun.uz/news/2024/06/30/ismlarimiz-rus-tiliga-moslashtirilgani-bizni-noqulay-ahvolga-soladi-kanadadagi-ozbek> (Murojaat sanasi: 11.10.2024)

individual va subyektiv tarzda hal qilinadi. Shu sababli, quyidagi maqolada ushbu muammo ilmiy va tilshunoslik nuqtayi nazaridan tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda yuqorida zikr etilgan muammolarga transkripsiya va transliteratsiya kabi lisoniy kontseptlar yordamida obyektiv va tizimli yechimlarni taklif qilish maqsad qilingan.

Asosiy qism

Transkripsiya, transliteratsiya, transformatsiya yoki tadbil tushunchalari xususida.

Yuqorida sanab o'tilgan uch atama orasida transkripsiya atamasi, ayniqsa xorijiy tillarni o'qitish kontekstida, boshqa ikki atamaga nisbatan kengroq tanilgan. Aksincha, transliteratsiya hamda transformatsiya yoki tadbil atamalari ko'proq tor doiradagi mutaxassislar orasida ma'lum.

Transkripsiya deyilganda biron matnning yozuv shaklidan foydalanib yoki boshqa shakllardagi ma'lumotlarning, alifbo asosidagi shaklda qayta ifoda etilishidir. Eng mashhur va universal transkripsiya tizimi sifatida IPA — Xalqaro fonetik alifbo (International Phonetic Alphabet) tilga olinadi. Transkripsiyalangan matn ko'pincha asl matnga grafik jihatdan to'liq mos kelmaydi. Bunga sabab transkripsiya jarayonida fonetik tamoyilning ustuvorligi hisoblanadi [Bussmann & Lauffer 2008: 752–753]. Masalan, o'zbekcha “Shahzoda” ismi nemis tilida “Schachsoda” tarzida transkripsiyalanadi. Bu misoldan ham ko'rinib turibdiki, bu ikki yozuv shakli o'rtasida to'liq harfiy moslik mavjud bo'lmasa-da, talaffuz jihatdan moslik mavjud. O'zbek tilshunosligida ham “transkripsiya” atamasi shunga o'xshash tarzda izohlanadi. Ya'ni, transkripsiya deganda, so'zlarning aytilish shaklini amaldagi yozuv tizimi orqali ifodalash tushuniladi, bu yerda so'z nechta harfdan iboratligi yoki aslida qaysi yozuvda yozilgani muhim emas [Sodiqov 2017: 116].

Transkripsiya jarayoni ichida esa ikki asosiy tur farqlanadi, fonetik va fonematik transkripsiyalarga bo'linuvchi ilmiy transkripsiya hamda asosan amaliy hayotda, ayniqsa OAVda va kundalik matnlarda qo'llaniluvchi amaliy transkripsiya. Fonetik transkripsiyada har bir individual tovush (fon) va uning variantlari alohida ko'rsatilib yuqorida keltirilgan IPA tizimi bunga eng yorqin misoldir. Fonematik transkripsiyada esa faqat fonemalar, ya'ni farqlovchi tovushlar ifodalanadi, shuning uchun u fonetik transkripsiyaga qaraganda kamroq aniqlikka ega. Amaliy transkripsiya esa yanada umumiy xarakterga ega bo'lib, asosan atoqli otlar, terminlar va xususiy nomlarni bir milliy tildan boshqasiga o'tkazishda qo'llaniladi. Bunda asosiy maqsad qabul qiluvchi tilning yozuv tizimi orqali manba tilidagi atamaning imkon qadar to'g'ri talaffuzini ifodalashdir. Qabul qiluvchi tilning talaffuz qoidalariga to'liq mos kelmaydigan tovush kombinatsiyalariga esa muayyan darajada yo'l qo'yiladi [Суперанская 1978].

Transliteratsiya bu bir yozuv tizimida yozilgan matnni boshqa yozuv tizimiga harfma-harf o'tkazish jarayonidir. Bunda har bir harfga boshqa yozuv tizimida aniq va o'ziga mos harf birga-bir ravishda mos keladi. Ya'ni transliteratsiyada matn tarkibidagi harflar mos ravishda bir tildan

boshqa tilga birma-bir ko'chiriladi. Bu jarayonda talaffuz yoki mazmun odatda e'tiborga olinmaydi [Sodiqov 2017: 116–117].

Transformatsiya yoki o'zbek ilmiy tilida tabdil jarayonida bir milliy til ichidagi tarixiy til shaklida yozilgan matnlarni ko'pincha zamonaviy o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi uchun zamonaviy tilga moslab tarjima qilish yoki qayta tuzish jarayoni tushuniladi [Sodiqov 2017: 116 – 117]. Misol uchun qadimgi yuqori nemis tilida yozilgan bir matnni zamonaviy nemis tiliga o'girish, yoki Mir Alisher Navoiyning nasriy asarlarini zamonaviy o'zbek tiliga o'girish tabdilga yaqqol misol bo'la oladi. Yana shuni ta'kidlash joizki jarayonning o'zini ham, uning natijasini ham anglatuvchi “tabdil” atamasi, o'zbek ilmiy an'analariiga muvofiq tilshunoslikning maxsus yo'nalishi sifatida ajralib chiqqan “matnshunoslik va manbashunoslik” sohasi bilan chambarchas bog'liq. G'arb ilmiy doiralarda esa “tabdil” tushunchasining bevosita ekvivalenti yoki aynan bir til doirasidagi tarixiy tillarni zamonaviy tilga o'girish bilan shug'ullanishni ustuvor maqsad qilgan aynan institutionallashtgan tadqiqot sohasi yo'q bo'lib, bu jarayon uchun “translation“, “adaptation” yoki “reconstruction” “transformation” kabi umumiy atamalar qo'llaniladi hamda mazkur jarayon til tarixi hamda Mediavistika, ya'ni o'rta asrlar tili, adabiyoti va madaniyatini o'rganuvchi fan sohasining tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Yuqoridagi ta'riflardan ham ayon bo'ladiki, transliteratsiya, transformatsiya (tabdil) va ilmiy transkripsiya odatda ilmiy, rasmiy va tarixiy kontekstlarda qo'llaniladi. Aksincha, amaliy transkripsiya esa ko'proq OAV, kundalik hayot va keng omma uchun mo'ljallangan bo'ladi. Mazkur maqola doirasida ilmiy transkripsiya va tabdil masalalariga to'xtalmasdan, asosiy e'tibor amaliy transkripsiya hamda transliteratsiya hodisalariga qaratiladi.

Tahlil — Transliteratsiya

Transliteratsiya, shuningdek, transkripsiya atamalari, o'zbek tilshunosligi doirasida, ayniqsa, matn va manbashunoslik kontekstida keng qo'llaniladi. Bunda sog'diy, uyg'ur, ko'kturk va boshqa tarixiy tillarda bitilgan qadimiy yozma manbalar transliteratsiya, transkripsiya yoki transformatsiya, ya'ni tabdil shaklida qayta tiklanadi. Biroq ko'plab turkologlar bu kabi tarixiy matnlarni keltirganda, bevosita ularning asliyatidan emas, balki tabdil qilingan shaklidan foydalanishlari mutaxassislar tomonidan tanqidiy qaraladi [Sodiqov 2017: 117–118]. Shundan kelib chiqqan holda transliteratsiya va transkripsiya atamalari bir qarashda faqatgina tarixiy manbashunoslik doirasida qo'llanilayotgandek [Abdulxayrov 2023] taassurot uyg'onib, ularning boshqa ilmiy kontekstlardagi qo'llanilishi hozirda dolzarb emasdek tuyuladi. Bundan tashqari, mazkur maqola doirasida yana bir muhim kamchilik sifatida, mazkur matnshunoslikka oid adabiyotlarda asosan nazariy masalalarning muhokamasi bilan chegaralanishi va transliteratsiya yoki transkripsiyaning amaliy jihatlari, ya'ni transliteratsiya va transkripsiya tizimlarining tanlanishi va qo'llanilishi, tarixiy yozuvlarning transliteratsiya uslublari kabi muhim masalalar chetlab o'tiladi. Natijada bu asarlarni tushunish va

ulardan foydalana olish uchun o'quvchidan transliteratsiya, transkripsiya hamda tabdil boralarida anchayin chuqur dastlabki bilimlar talab qilinadi.

Vaholanki transliteratsiyaning ilmiy kontekstlardagi ahamiyati ayniqsa katta. Chunki u mualliflarning dunyo miqyosida aniq identifikatsiya qilinishini ta'minlaydi. Albatta, mualliflar va ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslar uchun Open Researcher and Contributor ID (ORCID) yoki tashkilotlar uchun Research Organization Registry (ROR) kabi boshqa keng tarqalgan barqaror identifikatsiya vositalari ham mavjud [Islomov & Jumaniyozov 2024: 241–242]. Biroq shaxsga doir ma'lumotlarni to'g'ri transliteratsiya qilish orqali, qo'shimcha identifikatsiya jarayonlariga ehtiyoj qoldirmaslik mumkin. Xususan, bu holat kutubxonashunoslik va kataloglashtirish sohasida mualliflarning ilmiy publikatsiyalarini bitta joyda hamda tizimli ravishda kataloglashtirish uchun nihoyatda muhim. Chunki bir-biriga mos harfiy ko'chirish va ularni asliyatdagi manbaga aynan qayta transliteratsiya qila olish transkripsiyadan farqli ravishda transliteratsiyaning ustuvor maqsadi sanaladi.

R. Zekalle (1964) bu borada quyidagi misollarni keltiradi: masalan, rus tilidagi “Щедрин” familiyasi transkripsiya qilinsa, nemis tilida “Stschedrin”, daniya tilida “Sjtsjedrin”, fransuz tilida esa “Chtchedrine” shaklida yoziladi. Natijada bir xil muallif alifbo bo'yicha katalogda uch xil joyda turadi. Ammo ushbu ism 1995-yilda qabul qilingan ISO-9: 1995 [ISO 9. International Standard 1995] xalqaro transliteratsiya tizimi asosida transliteratsiya qilinsa, u holda barcha tillarda yagona shaklda “Šedrin” tarzida yoziladi. Yoki rus tilidan nemis tiliga transkripsiya qilingan “Chrutschow” ismi rus tiliga qayta transliteratsiya qilinganda “Хрущов” shaklini oladi, bu esa asliyatdagi “Хрущёв” shaklidan farq qilib, joyi kelganda muhim ilmiy va amaliy xatolarga olib kelishi mumkin [Zekalle 1964: 88].

Transliteratsiya nihoyatda muhim bo'lgan yana bir soha bu rasmiy hujjatlar va shaxsni tasdiqlovchi guvohnomalardir. Afsuski, bugungi kunda ham ayrim pasportlarda yoki boshqa hujjatlarda o'zbekcha ismlar ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki rus tili orqali transliteratsiya qilingan holatda uchramoqda². Sobiq Sovet davrida esa hatto o'zbekcha ismlar o'zbek tilida ham tegishli rasmiy hujjatlarda ruscha talaffuzga moslashtirib transliteratsiya qilingan edi. Abdullayevga (2021) muvofiq, o'zbekcha ismlar rus tiliga transliteratsiya yoki transkripsiya qilinayotganda quyidagi o'zgarishlarga uchraydi [Abdullayev 2021:45–46]:

Harflar	Misollar
<қ> [q] → <к> [k]	Қодиров ‘Qodirov’ → Кадиров Кадиров’Боқиев ‘Boqiev’ → Бакиев ‘Bakiev’,

² Taqqoslang: Mahbuba Ergasheva: “Ismlarimiz rus tiliga moslashtirilgani bizni noqulay ahvolga soladi” – Kanadadagi o'zbek. [www.kun.uz](https://kun.uz/news/2024/06/30/ismlarimiz-rus-tiliga-moslashtirilgani-bizni-noqulay-ahvolga-soladi-kanadadagi-ozbek) online platformasida. URL: 11.10.2024. <https://kun.uz/news/2024/06/30/ismlarimiz-rus-tiliga-moslashtirilgani-bizni-noqulay-ahvolga-soladi-kanadadagi-ozbek> (Murojaat sanasi: 11.10.2024)

<ŷ> [ə] → <y> [u]	Ўлмасов ‘Ölmasov’ → Улмасов ‘Ulmasov’; Бўриев ‘Böriev’ → Буриев ‘Buriev’
<x> [h] → <x> [x]	Холида ‘Holida’ → Холида ‘Cholida’, Раҳимов ‘Rahimov’ → Рахимов ‘Rachimov’
<ʀ> (Uvular trill [ʀ]) → <ɾ> [g]	Ғолиббой ‘G‘olibboy’ → Голиббай ‘Golibbay’, Абдуғофур ‘Abdug‘ofur’ → Абдугапир ‘Abdugapir’
<э> [ɛ] → <и> [i]	Эргашев ‘Ergashev’ → Иргашев ‘Irgashev’, Эшматов ‘Eschmatov’ → Ишматов ‘Ischmatov’, Эминов ‘Eminov’ → Иминов ‘Iminov’
<o> [o] → <a> [a]	Бозоров ‘Bosorov’ → Базаров ‘Basarov’

Quyidagi rasmiy hujjatlarda keltirilgan o‘zbekcha ismlar³ misolida ismlar va ularning ingliz tiliga transliteratsiya jarayonida o‘zbekcha diakritik belgisi maxsus harflar transliteratsiyasi hozirgacha saqlanib qolayotganini ko‘rish mumkin:

O‘zbekcha ismlar	Rasmiy inglizcha transliteratsiya
Xamid	Khamid
Voxidov	Vokhidov
Xudoykulov	Khudaykulov
Hilola	Khilola
Hafiza	Khafiza
Jumaniyozov	Djumaniyazov

Shu bilan birga, qayd etish lozimki, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda bu holat muayyan darajada yaxshilangan. Xususan, 1991-yildan keyin tug‘ilgan avlod vakillari rasmiy hujjatlarini ingliz tiliga transliteratsiya qilishda o‘zbek tilidagi qattiq “X” va yumshoq “H” harflari o‘rtasida farq qilina boshlangan. Bunda faqat “X” harfi ingliz tiliga “KH” shaklida transliteratsiya qilinib, “H” va “J” harflari esa asl shaklida saqlab qolingani ko‘rish mumkin:

O‘zbekcha ismlar	Rasmiy inglizcha transliteratsiya
Bahodirovich	Bahodirovich
Jo‘rabek	Jurabek
Rahmonov	Rahmonov

³ Mazkur hamda maqolada bundan keyin keltirilgan barcha atoqli otlar misollari, agar boshqa manbalar keltirilmagan bo‘lsa, mualliflarning qarindoshlari, oila a‘zolari yoki tanishlarining hozirda amalda bo‘lgan shaxsni tasdiqlovchi rasmiy guvohnomalari, jumladan pasport, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma, diplom, haydovchilik guvohnomasi va hokazolar, asosida yig‘ilgan. Shuningdek misollar mualliflarning boshqa bir tezisida ishlatilgan na‘munalaridan ham olindi. Taqqoslang: Islomov S. R. & Jumaniyozov Z. O. Transliteration und Transkription im Usbekischen. Eine praxisbezogene Analyse, Urganch 2024.

Ayni paytda, amaldagi idoraviy amaliyotda, ayniqsa pasportlardagi ismlarni ingliz tiliga transliteratsiya qilishda ruscha transliteratsiyaga nisbatan muayyan moyillik yoki amaliy hamda tarixiy-an'anaviy sabablarga asoslangan yondashuvlar hanuz saqlanib qolganini kuzatish mumkin. Mazkur holatlar ko'plab o'zbek ismlarining ingliz tilidagi shakllarida muntazam ravishda namoyon bo'lishini va xalqaro miqyosda keng tarqalgan, xususan, o'zbek tilini transliteratsiya qilishda tavsiya etilgan ISO 9: 1995 xalqaro standarti yoki AQShda qo'llaniladigan ALA-LC: 2017 [ALA-LC Romanization Tables 2017] standartlari transliteratsiyasiga mos emasligini ko'rsatadi:

O'zbekcha ismlar	Rasmiy inglizcha transliteratsiya	ISO 9:1995 standarti bo'yicha transliteratsiya	ALA-LC: 2017 standarti bo'yicha transliteratsiya
Ro'ziqulovich	Ruzikulovich	Rūzīkulovič	Rūzīkulovich
Qobilbek	Kobilbek	Qobilbek	Qobilbek
Xusan o'g'li	Khusan Ugli	Husan Ūgli	Husan Ūghli
Zoxid qizi	Zokhid Kizi	Zohid Qizi	Zohid Qizi
Furqat	Furkat	Furqat	Furqat
Fayzullayev	Fayzullaev	Fajzullajev	Faizullaev
Abdullayev	Abdullaev	Abdullajev	Abdullaev

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, ingliz tilida, shuningdek, boshqa ko'plab tillarda to'g'ridan to'g'ri muqobili bo'lmagan o'zbek tilidagi "Q", "O" va "G" harflari ko'pincha mos ravishda "K", "U" va "G" shaklida transliteratsiya qilinadi. Qizig'i shundaki, bu yondashuv yuqorida keltirilgan o'zbek ismlarini rus tiliga moslashtirish bo'yicha jadval [Abdullayev 2021: 45–46] bilan to'liq mos keladi. Bunday amaliyot boshqa tarafdin yozish va talaffuzdagi qulayliklar bilan yoki tarixiy shakllangan an'analar natijasi bilan ham izohlanishi ehtimoldan xoli emas. Misol uchun "O'zbekiston" va "o'zbek" geografik atamalarining ingliz tilida "Uzbekistan" va "Uzbek" shaklida mustahkam joylashishi natijasida "O" harfining amalda "U" shakldagi transliteratsiya amaliyotiga olib kelgani kabi.

Qiziqarli jihati shundaki, yuqorida keltirilgan "Fayzullayev" va "Abdullayev" ism misollarining inglizcha transliteratsiyada "Y" harfi tushirib qoldirilishi. Bu yerda yuzaga kelgan muammo aslida kirill yozuvidagi o'zbekcha "E" harfiga borib taqaladi. Chunki bu harf, odatda, so'z o'rtasida ochiq [e] tovushi sifatida, so'z boshida esa [je] tarzida talaffuz qilinadi: masalan, "мен" [men] va "елка" [jelka] yoki "-yev" va "-yeva" qo'shimchalaridagi kabi. Holbuki, kirill yozuvidagi o'zbek alifbosida ochiq [e] tovushi uchun alohida "Э" harfi ham mavjud edi. Inglizcha transliteratsiyada "Y" harfining tushirib yuborilishi o'zbek tili imlo qoidalari bilan tushuntirib berila olmaydi. Garchi o'zbek tilining yonma-yon keladigan unlilar imlosiga muvofiq ba'zan unlilar orasida "Y" undoshi qo'shib aytilsa ham yozilmaydi deb keltirilgan. Mazkur qoidaga

muvofoiq quyidagi unlilar yonma-yon kelganda “ia” – material, milliard, “io” – biologiya, million, “ai” – mozaika, maishat, “oi” – alkaloid, ellipsoid, “ea” – teatr, okean, “ae” – aerostat, “oe” – poema kabi [Tog‘ayev 2019: 129; Жамолхонов & Сапаев 2007: 165–174]. “Abdullayev” hamda “Fayzullayev” familiyalarida ham “ae” unlilarining yonma-yon kelishi natijasida ingliz tilida “Y” undosh tovushi tushirib qoldirilgan degan fikr ham paydo bo‘lishi mumkin. Mazkur fikrga qarshi ikki qarama-qarshi fikrlarni keltirib o‘tish mumkin. Birinchidan, yuqoridagi qoidaga muvofoiq “Y” undosh tovushining tushirib qoldirilishi asosan chet tilidan kirib kelgan so‘zlarda uchrashi va ikkinchidan, “Y” undosh tovushining o‘zbek tilida emas, aynan ingliz tilida tushirib qoldirilishi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda “Y” undosh tovushining tushirib qoldirilishini, bir tomondan, ingliz tilida bu kabi bo‘g‘in kombinatsiyalarining odatiy emasligi bilan, boshqa tomondan esa rus tiliga hamda kirill alifbosiga asoslangan an‘anaviy transliteratsiya uslubi bilan ham izohlanishi mumkin. Chunki rus tili hamda kirill yozuvidagi o‘zbek alifbosidagi “E” harfi o‘zida ikki [je] va [e] tovushlarini birlashtirgan bo‘lib, u lotin yozuviga ko‘pincha shunchaki “E” harfi bilan transliteratsiya qilib qo‘ya qolingan.

Yuqorida keltirilgan barcha o‘zbekcha ism misollaridan kelib chiqib quyidagi xulosa chiqarish mumkin. O‘zbek atoqli otlarini boshqa tillarga, xususan, ingliz va nemis tillariga transliteratsiya qilish jarayonida ayrim muammo va qiyinchiliklarning yuzaga kelishi, transliteratsiya qilishda yagona va standartlashtirilgan yechimga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Garchi lotin alifbosining joriy etilishi bilan o‘zbek tilida transliteratsiya muammosi tizimli ravishda o‘z-o‘zidan hal bo‘lgandek tuyulsa-da, quyidagi harflar transliteratsiya jarayonida ayrim qiyinchiliklar keltirib chiqarayotganini ko‘rish mumkin:

- **O’ o’** – O‘ktam
- **Q q** – Quvondiq
- **G’ g’** – G‘ofur
- **H h** – Hilola
- **X x** – Xamid
- **J j** – Sanjar
- **Y** – Fayzullayev. Inglizcha transliteratsiyada “Y” harfining tushirib yuborilishi holati.

Agar Google Scholar kabi ilmiy platformalarda transliteratsiya mavzusiga oid maqolalar yoki boshqa ilmiy publikatsiyalar izlansa, O‘zbekiston ilmiy doiralarida bunday tadqiqotlarga deyarli duch kelinmaydi. Bu holat transliteratsiya mavzusi hozirgi kunda dolzarb ilmiy yo‘nalish emas, balki chekka, tor doiradagi fenomen sifatida qaralayotganidan dalolat beradi. O‘zbekistonlik ilmiy jurnallarning katta qismi ham bu masalaga yetarlicha e‘tibor qaratmayotgani kuzatiladi. Shunga qaramay Fledu.uz — “O‘zbekistonda xorijiy tillar” jurnali bu borada kam sonli istisnolardan biri hisoblanadi. Unda mualliflardan adabiyot ro‘yxatini nafaqat asl tilda, balki lotin alifbosida transliteratsiya qilingan shaklda ham taqdim etish talab qilinadi⁴. Albatta, mazkur jurnal

⁴ Taqqoslang: O‘zbekistonda xorijiy tillar jurnali” mualliflarga maqola talablari. URL: <https://journal.fledu.uz/uz/maqola-tablari/> (Murojaat sanasi: 01.04.2025)

transliteratsiya fenomenining ilmiy ahamiyatini to'g'ri anglagani tahsinga loyiq bo'lsa-da, biroq, aynan qanday sabablarga ko'ra jurnal transliteratsiya talablarini ancha yangi va nisbatan ochiq mavjud bo'lgan ISO 9:1995 yoki GOST 7.79-2000 [GOST 7.79-2000. Межгосударственный стандарт 2000] kabi tizimlar talablari asosida emas, nisbatan eskirgan va foydalanuvchilar topish o'ta qiyin bo'lgan BSI yoki BS 2979: 1958 standartiga [BS 2979: 1958. Transliteration of Cyrillic and Greek characters 1958] muvofiq talab qilinishi savollar keltirib chiqaradi?

Vaholanki O'zbek tili uchun, ham xalqaro, ham milliy darajada bir nechta transliteratsiya tizimlari mavjud. Eng avvalo, bu yerda xalqaro ISO 9:1995 standarti alohida ta'kidlanishi kerak. Ushbu standartda o'zbek kirill alifbosi uchun lotin alifbosidagi transliteratsiya va qayta transliteratsiya yoki retransliteratsiya jadvallari ishlab chiqilgan. Ta'kidlash lozimki, milliy transliteratsiya tizimlarining aksariyati aynan ushbu tizimga asoslanadi va u muayyan vaqtlar oralig'ida doimiy yangilanib boriladi. Yana bir xalqaro tizim bu sobiq Sovet Ittifoqi respublikalari tillari alifbolari o'rtasida transliteratsiyani me'yorlashtiruvchi GOST 7.79-2000 tizimidir. Shu bilan birga, o'zbek tili uchun mo'ljallangan hamda umumiy milliy transliteratsiya tizimlari Germaniyada [DIN 1460-2:2010. Umschrift kyrillischer Alphabete. / Teil 2: Umschrift kyrillischer Alphabete nicht-slawischer Sprachen 2011], AQShda [ALA-LC:2017] va Buyuk Britaniyada [BS 2979:1958] ham ishlab chiqilgan. Milliy davlatlar bu borada xalqaro ISO 9:1995 standartlarini bevosita qabul qilishlari yoki shu standart asosida o'zlarining maxsus transliteratsiya tizimlarini ishlab chiqishlari mumkin. Amaliyotda ISO 9:1995 xalqaro tizimi bilan tegishli milliy transliteratsiya tizimlari orasida faqat minimal farqlar mavjud bo'lib, faqatgina tizimlarning amal qilish doirasi farq qiladi. Ya'ni milliy tizimlar tegishli davlat ichida qo'llanilsa, xalqaro tizimlar esa xalqaro kontekstlarda ustuvorlikka ega. Quyidagi ⁵ jadvalda ham rus kirill alifbosining turli tizimlardagi transliteratsiyasi hamda undagi ayrim harflardagina kichik tafovutlar mavjudligini ko'rish mumkin:

Ruscha harflar	ISO 9: 1995	DIN 1460-2:2010	GOST 7.79-2000	BSI 2979-1958	ALA-LC-119: 1976
А а			a		
Б б			b		
В в			v		
Г г			g		
Д д			d		
Е е			e		
Ё ё	ë	ë	jo	ë	ë

⁴ Taqqoslang: Berlin botanika bog'i va muzeyi. URL: <https://www.bgbm.org/sites/default/files/Transliteration-kyrillisch.pdf> (Murojaat sanasi: 23.03.2025)

⁵ Taqqoslang: Berlin botanika bog'i va muzeyi. URL: <https://www.bgbm.org/sites/default/files/Transliteration-kyrillisch.pdf> (Murojaat sanasi: 23.03.2025)

Ж ж	ž	ž	zh	zh	zh
З з			z		
И и			i		
Й й	j	j	j	ï	ï
К к			k		
Л л			l		
М м			m		
Н н			n		
О о			o		
П п			p		
Р р			r		
С с			s		
Т т			t		
У у			u		
Ф ф			f		
Х х	h	ch	kh	kh	kh
Ц ц	c	c	c	ts	t^s
Ч ч	č	č	ch	ch	ch
Ш ш	š	š	sh	sh	sh
Щ щ	š	šč	shh	shch	shch
Ъ ъ			"		
Ы ы			y		
Ь ь			'		
Э э	è	è	eh	é	è
Ю ю	û	ju	ju	yu	i^u
Я я	â	ja	ja	ya	i^a

O'zbekistonda yagona milliy transliteratsiya tizimi ishlab chiqilganmi-yo'qmi degan masala unchalik aniq emas. GOST 7.79-2000 tizimining "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi" (UzStandard) tomonidan ham imzolanganidan kelib chiqib bilvosita xulosa qilish mumkinki, milliy transliteratsiya tizimi mavjud. Biroq bu ma'lumotni Uzstandartning rasmiy veb-sayti ma'lumotlari orqali bevosita tasdiqlashning imkoni bo'lmadi va agentlikka yuborilgan bu boradagi so'rovga mazkur maqola topshirilayotgan paytgacha hech qanday javob olinmadi.

Garchi bu tizimlarning barchasi o'zbek kirill alifbosiga asoslangan bo'lsa-da, yuqorida sanab o'tilgan o'zbek tiliga xos bo'lgan ayrim maxsus harflarni transliteratsiya qilishda ular bemalol qo'llanilishi mumkin. Boshqa tillar yozuvlari va alifbolari uchun ham milliy transliteratsiya tizimlari ishlab chiqilishi kerakmi-yo'qmi degan masala esa o'zbek tilshunoslari va til siyosati uchun mas'ul tashkilotlarga havola etiladi. Ammo tarixiy, madaniy jihatlar va hozirgi global rivojlanish tendensiyalari hisobga olinsa, o'zbek tili uchun relevant bo'lgan fors, arab, turk, xitoy (pinyin), fransuz, ispan va boshqa muhim tillar bo'yicha mavjud ISO 9: 1995 transliteratsiya tizimlariga asoslangan milliy transliteratsiya tizimlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Boshqa tillar uchun milliy transliteratsiya tizimlarni ishlab chiqish ilmiy, amaliy va

boshqa sabablardan tashqari, til siyosati nuqtayi nazaridan ham ahamiyatli bo‘lib, bu xalqaro miqyosda o‘zbek tilining va o‘zbek tilshunolarining nufuzini yana bir bor ko‘rsatib berishi mumkin.

Biroq bu jarayonda yana bir jihat e‘tiborga olinishi zarur. ISO 9:1995 transliteratsiya tizimlarida ham, o‘zbek tilida ham ayrim o‘ziga xos harflar mavjud bo‘lib, ularni transliteratsiya qilishda diakritik belgisi maxsus harflardan foydalaniladi. Bu belgilar esa ko‘pchilik foydalanuvchilar uchun muammo tug‘diradi, chunki bunday belgilar odatiy gadjet klaviaturalari orqali kiritilmaydi. Bu belgilardan faqatgina tegishli kompyuter dasturlari yordamida foydalanish mumkin. Shu sababli har bir til transliteratsiya tizimi doirasida ikki xil jadval ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asosiy jadval diakritik belgilarga ega harflar bilan, ikkinchi jadval esa harflar kombinatsiyasi asosidagi alternativ shakllar bilan. Bu yondashuv rus tilining milliy transliteratsiya tizimida allaqachon qo‘llangan bo‘lib, bu yerda kirill yozuvidagi rus harflarining lotin yozuviga transliteratsiyasida diakritik belgisi harflar bilan bir qatorda harflar kombinatsiyasi asosidagi alternativ transliteratsiya shakllari ham keltirilgan:

Ruscha harflar	ISO 9: 1995	GOST 7.79-2000 A-tizim 2-jadval. Diakritik transliteratsiya	GOST 7.79-2000 normasi B-tizim 4-jadval. Harflar kombinatsiya asosidagi transliteratsiya	Misollar - Diakritik transliteratsiya	Misollar - harflar kombinatsiya asosidagi transliteratsiya
Ё ё	Ë ë	Ë ë	Yo yo	Ëžik	Yozhik
Ж ж	Ž ž	Ž ž	Zh zh	Ëžik	Yozhik
Ц ц	C c	C c	Cz cz, C c	Cirk	Cirk, Czirk
Ч ч	Č č	Č č	Ch Ch	Čaj	Chaj
Ш ш	Š š	Š š	Sh sh	Škola	Shkola
Щ щ	Ŝ ŝ	Ŝ ŝ	Shh shh	Ŝedrin	Shhedrin
Ы ы	Y y	Y y	Y` y`	Žyl-był	Zhy`l-by`l
Ю ю	Ů ů	Ů ů	Yu yu	Ůrmal	Yurmala
Я я	Â â	Â â	Ya ya	Â	Ya

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, keng muhokama qilinayotgan o‘zbek lotin alifbosini isloh qilish mavzusi kontekstida, isloh qilinishi kutilayotgan diakritik belgilarga ega bo‘lgan o‘zbek harflari “G, O, Sh, Ch” uchun, ularning taklif etilayotgan yangi shakllari “Ğ, Ő, Ș, Ç” bilan bir qatorda, yagona prinsip asosida harflar kombinatsiyasi orqali yoziladigan alternativ shakllarini ham joriy etish taklifi [Islamov 2024] haqida o‘ylab ko‘rish maqsadga muvofiq.

Ammo ungacha o‘zbek tili uchun mavjud bo‘lgan xalqaro va milliy transliteratsiya tizimlari ilmiy hamjamiyat va keng jamoatchilikka

yetkazilishi lozim. Quyida, o'zbek tili uchun mavjud bo'lgan muhim transliteratsiya tizimlarining¹ batafsil jadvali keltiriladi:

Kirilcha harflar	Lotincha harflar	IPA tizimi bo'yicha talaffuzi	Misollar	ISO 9: 1995	DIN 1460-2: 2010	GOST 7.79-2000 normasi A-tizim	ALA-LC
А а	A a	[a]	arava, ota,	A a	A a	A a	A a
Б б	B b	[b]	bola, bor	B b	B b	B b	B b
Д д	D d	[d]	daryo, do'st	D d	D d	D d	D d
Е е	E e, Ye	[e], [je]	er, elak, yer, yon	E e	E e	E e	E e
Э э	E e	[e]	er, elak	È è	È è	È è	È è
Ф ф	F f	[f]	faqat, futbol	F f	F f	F f	F f
Г г	G g	[g]	gul, gap	G g	G g	G g	G g
И и	I i	[i]	ilm, ikki	I i	I i	I i	I i
Ж ж	J j	[ʒ]	juda, jirafa	Ž ž	Ž ž	Ž ž	Zh zh
К к	K k	[k]	kitob, kech	K k	K k	K k	K k
Л л	L l	[l]	lola, lazgi	L l	L l	L l	L l
М м	M m	[m]	mosh maqola	M m	M m	M m	M m
Н н	N n	[n]	non, nasl	N n	N n	N n	N n
О о	O o	[o]	ota, o'yin	O o	O o	O o	O o
П п	P p	[p]	pul, paxta	P p	P p	P p	P p
Р р	R r	[r]	ro'za, risola	R r	R r	R r	R r
С с	S s	[s]	suv, savdo	S s	S s	S s	S s
Т т	T t	[t]	to'g'ri, tong	T t	T t	T t	T t
У у	U u	[u]	uch ulkan	U u	U u	U u	U u
З з	Z z	[z]	zamin, zar	Z z	Z z	Z z	Z z
В в	V v	[v]	vazir, valyuta	V v	V v	V v	V v
Х х	X x	[x]	xizmat, xarita	H h	H h	H h	Kh kh
Й й	Y y	[j]	yo'l, yangi	J j	J j	J j	İ i
Ў ў	O' o'	[ø]	o'zbek, o'g'il	Ŭ ŭ	Ŭ ŭ	Ŭ ŭ	Ŭ ŭ
Қ қ	Q q	[q]	qayiq, qish	Ḳ ḳ	Ḳ ḳ	Ḳ ḳ	Q q
Ғ ғ	G' g'	[ɣ]	g'azal, g'ofur	Ḡ ḡ	Ḡ ḡ	Ḡ ḡ	Gh gh
Ҳ ҳ	H h	[h]	hayot, havo	Ḥ ḥ	Ḥ ḥ	Ḥ ḥ	Ḥ ḥ
Ш ш	Sh sh	[ʃ]	shahar, shamol	Š š	Š š	Š š	Sh sh
Ч ч	Ch ch	[tʃ]	choy, cho'l	Č č	Č č	Č č	Ch ch
Ц ц	–, (ts, s)	[ts]	Attestatsiya, sirk	C c	C c	C c	Ts ts
Ъ ъ	(')		a'lo e'lon	"	"	"	"
Ь ь	–			'	'	'	'

Ю ю	– (Ya)						İŮ iū
Я я	– (Yu)						IA iā

Tahlil — Transkriptsiya

Yuqorida ta’kidlanganidek, transkriptsiyada matnlar va soʻzlarning asliyat tildagi talaffuzni iloji boricha toʻgʻri berish va bunda harflarning orfografik jihatdan birga-bir mos kelishi ustuvor emas. Bu transkriptsiyani yoki aniqrogʻi amaliy transkriptsiyani keng omma va umumiy foydalanish uchun dolzarb qiladi. Parashkevov (2002) ma’lumotlariga koʻra, tillar boshqa tillardan atoqli otlarni transkriptsiya qilishda transkriptsiya yoki transliteratsiya tamoyillariga asoslanadi. Transliteratsiya tamoyili deganda, atoqli otlar boshqa tillardan milliy tilga oʻtkazilganda, bu tovush birikmalari qabul qiluvchi tilda orfografik bormi yoki bu talaffuz milliy talaffuz qoidalarga mos kelish-kelmasligidan qatʻi nazar, barcha tovushlar saqlanib qoladi. Muallif transliteratsiya tamoyili uchun rus tilini asosiy misol sifatida keltirib, undoshlar transliteratsiya tamoyiliga izchil, unlilar esa kamroq izchillik bilan amal qilishini qayd etadi. Nemischa “Aaxen” – ruscha “Aaxen” emas, shunchaki “Axen” kabi. Bundan tashqari, rus tilida bu tamoyildan ikkita jiddiy ogʻish bor, ya’ni nemis tilidagi “h” grafemasi rus tilida “r” ga aylanadi va nemis tilidagi “ei”, “eu/äu” diftonglari rus tilida “ей/ěй”ga aylanadi.

— *nemischa: Halle, Hamburg, Heidelberg, Heinrich Heine, Hitler, Humboldt,*

— *ruscha: Галле, Гамбург, Гейделберг, Гейнрих Гейне, Гитлер, Гумбольдт*

Atoqli otlarni bir tildan boshqa tilga oʻtkazishda transkriptsiya tamoyiliga asoslanuvchi tillar ismlarni orfografik soddalashtirishga, tilning milliy fonetik talaffuz qoidalariga moslashtirishga imkon beradi. Parashkevov [Parashkevov 2002: 182–189] bolgar tilini bunday tilga misol qilib keltiradi:

Atoqli ot olinayotgan til	Transliteratsiya tamoyiliga asoslangan qabul qiluvchi til	Transkriptsiya tamoyiliga asoslangan qabul qiluvchi til
nemischa	ruscha	bolgarcha
Brandt, Darmstadt, Schmidt, Absetzer	Брандт, Дармштадт, Шмидт, Абзетцер	Брант, Дармштат, Шмит, Абзетцер
Grimm, Wuppertal, Neckar, Nizza	Гримм, Вупперталь, Неккар, Ницца	Грим, Вуперталь, Некар, Ница
Hochchuth, Kirchhoff, Münchhausen	Хоххут, Кирхгоф, Мюнхгаузен	Хоххут, Кирхгоф, Мюнхгаузен.

Shu oʻrinda mantiqiy savol oʻzbek tilining boshqa tillardagi atoqli otlar va ismlarni transkriptsiya qilishda qaysi tamoyilga amal qilishi haqida

bo'ladi. Ommaviy axborot vositalariga nazar tashlanadigan bo'lsa, transliteratsiyadan farqli o'laroq, transkripsiya mavzusi jamoatchilik e'tiborida faolroqdek va aktualroqdek tuyuladi⁶. O'zbekistonda amaliy transkripsiyaning hozirgi holati va amaldagi amaliyoti www.kun.uz va www.daryo.uz internet va axborot platformalaridagi maqolalar va yangiliklar hamda turli nemis onlayn ommaviy axborot vositalarida chop etilgan maqolalar asosida tahlil qilinadi. Aynan mazkur saytlarning tanlanishiga sabab, birinchidan, ularning dinamik, tezkor va qiziqarli mazmundagi maqolalari bilan butun O'zbekiston bo'ylab keng jamoatchilik tomonidan o'qilishi bo'lsa, boshqa tomondan har ikkala platformada jahon sahnida bo'layotgan voqea-hodisalar faol yoritilishi va bu orqali boshqa tillardan olinuvchi atoqli otlarning ko'plab uchrashidir. Bunda barcha keltirilgan misollar, agar boshqa manba keltirilgan bo'lmasa, mazkur ikki internet saytlaridagi kalit so'zlarni qidirish funksiyasi yordamida, nashr qilingan maqolalar matnlari ichidan terildi.

Jumladan, tahlil jarayonida tarixiy sabablarga ko'ra va rus tili ta'sirida o'zbek tilida, xususan, nemischa kishi nomlari yozilishida hali ham nemischa "h" grafemasining "r" grafemasiga, nemis tilidagi "ei", "eu/äu" diftonglarining esa o'zbek tilining fonetik va orfografik o'ziga xosliklarini hisobga olmagan holda "ей/ёй" ga aylanishini ko'rish mumkin:

— dt: *Hamburg, Hamburger, Heinrich Heine, Hitler, Humboldt, Herman Hesse, Rhein* – usb: *Гамбург, Гамбургер, Гейнрих Гейне, Гитлер, Гумбольдт, Герман Гессе, Рейн*

Biroq bu tarixan qabul qilingan imlo shakllarining ba'zilar qisman milliy tilga bo'lgan hurmatning oshishi va chet tilini bilish darajalarining ortishi tufayli tobora ko'proq e'tirozlarga uchrashi ortidan ko'rib chiqilgan maqolalar doirasida ikkita parallel yozilish shakllarini kuzatish mumkin:

Atoqli ot olinayotgan til	Eski yozish shakli	Parallel yozish shakli
nemischa	o'zbekcha	o'zbekcha
Hamburg, Hamburger, Heinrich Heine, Hitler, Humboldt, Herman Hesse, Humanismus, Hannover, Rhein	Gamburger, Gitler, Gumbolt, Geynrix Geyne, gumanism, reyn	Hamburg, Hermann Hesse, Hamburger, Hannover, Rayn

Yuqoridagi misollardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, o'zbek tilida boshqa tillardan atoqli otlarni olish jarayonida tobora ko'proq

⁶ Taqqoslang: Zuhra Abduhalimova: SOS: O'zbek tilidagi xorijiy atoqli nomlar va so'zlar imlosida hanuz yakdillik yo'q. www.kun.uz online platformasida. 17.06.2022. URL: <https://kun.uz/53506065?q=%2F53506065> (Murojaat sanasi: 11.10.2024); Mahbuba Ergasheva: "Ismlarimiz rus tiliga moslashtirilgani bizni noqulay ahvolga soladi" – Kanadadagi o'zbek. www.kun.uz online platformasida. URL: 11.10.2024. <https://kun.uz/news/2024/06/30/ismlarimiz-rus-tiliga-moslashtirilgani-bizni-noqulay-ahvolga-soladi-kanadadagi-ozbek> (Murojaat sanasi: 11.10.2024)

transkripsiya tamoyiliga amal qilinmoqda. Quyida keltirilgan misollar ushbu farazni yana bir bor tasdiqlaydi:

— inglizcha, nemischa: *Jo Biden, Ilon Musk, Antony Blinken, Schteinmeier*

— o'zbekcha: *Jo Bayden, Ilon Mask, Entoni Blinken, Shtaynmayyer*

Shuningdek, transkripsiya tamoyili uchun xos bo'lgan tovushni soddalashtirish hamda milliy til me'yorlariga fonetik-orfografik moslashtirish kabi hodisalarni ham kuzatish mumkin:

— *Scholz, Humboldt, Helmut Kohl, Friedrich Nietzsche, Fritz, Warren Buffett, Pizza, Nizza, Michael Waltz*

— *Shols, Gumbolt, Helmut Kol, Fridrix Nitsshe, Frits, Uorren Buffett, Pitssa, Nitsa, Maykl Uolts*

Qolaversa, xalqaro kompaniyalar yoki brend nomlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari nomlari deyarli istisnosiz o'zbek tiliga transkripsiya qilinmasdan, asl nusxadagidek yozilishini kuzatish mumkin. Bundan tashqari ayniqsa ilmiy maqolalarda, publikatsiyalarda ilmiy etika qoidalariga muvofiq ilmiy publikatsiya avtorlari hamda nomlari, qaysi tilda nashr qilingan bo'lishidan qat'i nazar asliga muvofiq yoziladi, ya'ni transkripsiya emas, transliteratsiya qilinadi. Bunga oddiy misol qilib mazkur maqola doirasidagi boshqa tillarda chop qilingan ilmiy publikatsiyalardan olingan iqtiboslar va havolalarni keltirish mumkin. Shuningdek, bunday holat ko'pincha xorijiy ismlarning asliyatdagi talaffuzini bilmaslik, ismlarni transkripsiya qilishda bilib-bilmasdan orfografik xatolarga yo'l qo'yimaslik uchun ham ishlatiladi. Germaniyaning aksariyat ommaviy axborot vositalarida prezidentimizning ism-familiyasi amaldagi nemis transkripsiya qoidalariga zid ravishda asl shaklida yoziladi. Mazkur ism-familiyaning nemischa yozuv qoidalariga moslashtirilgan yozuv shaklini faqatgina ayrim hollardagina uchratish mumkin:

— *Coca-Cola, Apple, Samsung, Xiaomi, Volkswagen, Reuters, Süddeutsche Zeitung, Berliner Zeitung, Wall Street Journal, Forbes, The Times*

— o'zbekcha: *Shavkat Mirziyoyev* – nemischa: *asosan Shavkat Mirziyoyev⁷ba'zan Shavkat Mirzijojew⁸ yoki Schawkat Mirsijojew⁹*

Ayrim kam sonli atoqli otlar nomlari uchun tarixiy va an'anaviy shartli tarjimalar yoki qisman tarjimalar ham qo'llanilganini ko'rish

⁷ Taqqoslang: N-TV nemis yangiliklari platformasi. URL: <https://www.n-tv.de/politik/Usbekistans-kritische-Rohstoffe-ziehen-nicht-nur-Scholz-an-article25326488.html>, <https://de.euronews.com/business/2025/04/11/eu-und-zentralasien-starten-strategische-partnerschaft-auf-gipfel-in-samarkand> (Murojaat sanasi: 08.04.2025)

⁸ Taqqoslang: Germaniya hukumatining Sharq qo'mitasi veb sahifasi. URL: <https://www.ost-ausschuss.de/de/reise-zur-rechten-zeit> (Murojaat sanasi: 08.04.2025)

⁹ Taqqoslang: Germaniya tashqi ishlar vazirligi veb sahifasi. URL: <https://www.auswaertiges-amt.de/de/service/laender/usbekistan-node/politisches-portrait-206826> (Murojaat sanasi: 08.04.2025)

mumkin. Aytib o'tish lozimki milliy lug'at tarkibidagi arxaik so'z va atamalarni qayta faollashtirish orqali tegishli nomlarni tarixiy tarjimalar yoki o'zga so'zlar bilan almashtirish harakatlari tilning puristik harakati, ya'ni til sofliги harakati, bilan bog'liqligini ta'kidlash lozim. Shuningdek, ushbu holat so'z o'zlashtirish jarayonidagi kalkalash hodisasi bilan ham tushuntirilishi mumkin [Abjalova & Geldiyeva 2022: 49]. Bunday misollar, ayniqsa, geografik nomlarda uchraydi:

— *nemischa: Äthiopien, Libanon, Niedersachsen, Nordrhein-Westfalen, Georgien*

— *o'zbekcha: Efiopiya yoki Xabashiston, Livan yoki Lubnon¹⁰, Quyi Saksoniya, Shimoliy Reyn-Vestfaliya, Gurjiston.*

Shuningdek, ba'zi o'ziga xos ismlarda esa, ayniqsa genealogik, tarixiy va madaniy jihatdan o'zbek tili hamda bugungi O'zbekiston bilan juda yaqin aloqador bo'lgan nomlarda, ismlarning bevosita o'zbekcha ekvivalentlardan foydalanilganligini ko'rish mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, o'zbekcha ismlarning ko'pchiligi arab, fors va turk tillaridan kelib chiqqanligi bu holatni yanada kuchaytiradi:

— *Recep Tayyip Erdoğan – Rajab Toyyib Erdo'g'an yoki Rejep Tayyip Erdog'an,*

— *Қасым-Жомарт Кемелұлы Тоқаев – Qosim-Jo'mart To'qayev yoki Qosim-Jomart To'qayev,*

— *Massud Peseschkian – Mas'ud Peseshkiyon*

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar umumlashtirilgani holda, o'zbek tilida boshqa tillardan olingan o'zlashma otlarning transkripsiyasi amaliyotiga oid quyidagi manzarani ko'rish mumkin:

- so'nggi vaqtlarda transkripsiya tamoyiliga asoslangan yondashuvning tobora kengroq qo'llanilayotganligi. Bu yerda so'zning original tilidagi talaffuzi boshlang'ich nuqta sifatida olinadi. Shu bilan birga bu jarayonda fonetik-orfografik soddalashtirish yoki o'zbek tilining me'yorlariga moslashtirishni ham ko'rish mumkin;

- tovar belgilari, mahsulot, firma, brend, konsern va ommaviy axborot vositalari nomlarining so'zma-so'z, ya'ni hech qanday grafik transliteratsiya yoki fonetik transkripsiyasiz, bevosita asl ko'rinishida qabul qilinishi;

- transkripsiya tamoyili tobora ustuvor bo'lib borayotganiga hamda ayrim atamalarning transkripsiya tamoyiliga asoslangan o'zgartirilgan shakllari yoki ularning parallel har ikkala shakllari mavjud bo'lishiga qaramasdan, tarixiy-an'anaviy shaklda boshqa tillardan, xususan, rus tili orqali o'zbek tiliga kirib kelgan ko'plab atoqli otlarda hali ham eski yozuv shaklining saqlanib qolayotganligi;

- o'zbek tili bilan tilshunoslik, madaniyat va tarixiy jihatdan yaqin aloqador bo'lgan o'zlashma otlar o'zbek tilidagi mos muqobillari bilan almashtirilishi mumkinligi, qachonki o'zbek tili lug'aviy zaxirasida bunday nomlar mavjud bo'lsa.

¹⁰ Taqqoslang: Kun.uz internet platformasi. URL: <https://kun.uz/53506065?q=%2F53506065> (Murojaat sanasi: 24.10.2024)

Garchi transkripsiya tamoyili, shubhasiz, atoqli otlarni boshqa tillardan o'zbek tiliga transfer qilishda yozuvga tushirilishning asosiy mezon sifatida qaralishi mumkin bo'lsa-da, bu prinsipni izchil va tizimli ravishda amalga oshirish deyarli imkonsizdir. Ba'zi tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan, tarixiy jihatdan qabul qilingan atoqli otlarning imloviy shakllarini ham transkripsiya prinsipi asosida to'liq moslashtirish taklifi mavjud bo'lsada [Nuritdinova 2024: 110–113], bu taklif bir necha sabablarga ko'ra muammoli sanaladi. Avvalo, bunday so'zlarning barchasini aniqlab, ularning aniq ro'yxatini tuzish murakkab va salmoqli mehnat talab etadi. Ikkinchidan, yangi imlo qoidalarining foydalanuvchilar tomonidan amalda tatbiq etilishi ham qiyinchilik tug'diradi. Shu bois, bunday taklif lisoniy yoki ilmiy jihatdan emas, balki asosan til siyosatiga oid ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, transkripsiya tamoyili o'z tabiati zahirida yotgan muayyan zaifliklarga ega bo'lib, ba'zi hollarda amaliy qo'llash doirasida o'zining chegaralariga yetib borishi mumkin. Masalan, ba'zida transkripsiya qilinayotgan fonemalar yoki grafemalar qabul qiluvchi tilda mavjud bo'lmaydi, chunki hech qaysi tilda har qanday xorijiy tillarda mavjud bo'lgan barcha unli yoki undosh tovushlarni aks ettirish imkoniyati mavjud emas. Bu holatni o'zbek tilida ingliz tilidagi "th" digrafi yoki nemis tilidagi "ü" umlautlari misolida yaqqol ko'rish mumkin. Mazkur tovushlar mos ravishda xalqaro fonetik alifboga ko'ra [ð], [θ] va [y] fonemalari bilan ifodalanadi. O'zbek tilida esa bu fonemalarga to'g'ri keluvchi tovushlar va shunga monand, grafemalar mavjud emas. Shu bois, bu kabi tovushlarni o'zbek tiliga transkripsiya qilish jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Amaliyotda hind-yevropa tillarida uchrovchi "dt", "sz", "tz", "zz" yoki hattoki "z" kabi o'zbek tiliga xos bo'lmagan tovush kombinatsiyalari ham jiddiy imloviy qiyinchiliklar tug'diradi. Quyidagi misollar buning yaqqol dalilidir:

— *Nizza – Nitsa, Pizza – Pitssa, Fritz – Frits, nazistisch – natsistcha, Nietzsche – Nitsshe, Scholz – Shols*

Transkripsiya jarayonidagi yana bir muhim masala bu matn muallifining individual lisoniy kompetensiyasidir. Muayyan atoqli ot turli mualliflar tomonidan turlicha transkripsiya qilinishi va buning natijasida amaliyotda bitta xorijiy ismning turli variantlarini ko'rish mumkin. Bu amaliyotni nafaqat o'zbek matbuotida, balki istalgan boshqa tillarda ham kuzatish mumkin. Bunga misol qilib Mirzo Ulug'bek nomining Germaniya OAVlarida keltirilgan, nemis tiliga xorijiy atoqli otlarni transkripsiya qilish qoidalariga moslashtirilgan hatto bitta maqolada¹¹ ikki xil imloviy variantini uchratishni ko'rsatish mumkin:

— *o'zbekcha: Ulug'bek, Navro'z*

— *nemischa: Ulugh Beg yoki Ulug Beg, Nowruz¹² yoki Navruz¹²*

¹¹ Taqqoslang: Euronews yangiliklar portalida. URL: <https://de.euronews.com/kultur/2025/03/21/vier-dinge-die-sie-uber-das-traditionelle-nowruz-fest-wissen-sollten> (Murojaat sanasi: 05.04.2025)

¹² Taqqoslang: Central Asia sayohat kompaniyasi veb sahifasi. URL: <https://www.centralasia-travel.com/de/publication/navruz>, Zugriff: 09.11.2025 (Murojaat sanasi: 05.04.2025)

Xulosa

Yuqoridagi barcha bayonlar va misollardan kelib chiqib, o'zbek tilida boshqa tillardan olingan atoqli otlarni transliteratsiya qilish bo'yicha quyidagi normativ takliflarni ilgari surish mumkin:

- Xalqaro ISO 9:1995 standartlariga asoslangan holda transliteratsiyani milliy darajada me'yorlashtirish bo'yicha til siyosatiga oid tegishli qarorlar qabul qilish;
- Xalqaro transliteratsiya standartlari yoki dunyodagi muhim yozuv tizimlari uchun ishlab chiqilgan transliteratsiya jadvallarini filologiya yo'nalishlarida, ilmiy jurnallar, nashrlar va to'plamlarda keng yoritish;
- O'zbek tili uchun mavjud xalqaro standartlarga asoslangan transliteratsiya jadvallarini keng auditoriyaga yetkazilishi, zarurat bo'lsa, milliy transliteratsiya standartlariga mos jadvallar va ularni tushuntiruvchi vizual ko'rsatmalar (tutoriallar) ishlab chiqilishini ta'minlash.

Transliteratsiyadan farqli o'laroq, amaliy transkripsiya umumiy foydalanishda kengroq qo'llanilishi sababli, amaliy transkripsiyaning yagona me'yorlarini ishlab chiqish ancha mushkul, garchi ayrim tillarda bunday me'yorlar mavjud bo'lsa-da, xuddi nemis tilida rus tili alifbosi harflari uchun maxsus transkripsiya jadvali mavjud bo'lgani kabi [Drosdowski 1991: 82; Scholze-Stubenrecht 1997: 86]. Bunga qo'shimcha ravishda, tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, transliteratsiya va transkripsiya qilingan atoqli otlar, ayniqsa shaxs nomlari ad-hoc o'zlashmalar yoki okkazonalizmlar sifatida qaraladi. Ularni doimiy ravishda milliy tilning lug'aviy tarkibiga kiritish boshdan maqsad qilinmaydi. Shunga qaramay, transkripsiya jarayoni uchun ayrim me'yoriy qoidalarni belgilab olish mumkin:

Xorijiy tillardagi atoqli otlarni o'zbek tiliga berishda transkripsiya prinsipining asosiy tamoyil sifatida qabul qilinishi;

Firma, mahsulot, brend, OAV nomlari, shuningdek, o'zbek tili bilan tilshunoslik jihatidan qarindosh yoki tarixiy-madaniy jihatdan yaqin bo'lgan tillardan kirib kelgan atoqli otlar nomlarida transkripsiya prinsipidan og'ish holatlarining inobatga olinishi;

Milliy talaffuz fondida mavjud bo'lmagan fonemalar va tovushlar uchun lingvistik-me'yoriy ko'rsatmalar ishlab chiqilishi boshqa tillarda ham kuzatiladigan amaliyotdir. Misol uchun, rus tilida o'zbek tilidagi "K", "F", "Y", "X" tovushlarining yo'qligi bois ularni ifodalash uchun mos holda "K", "T", "Y", "X" shakllarida yagona orfografik qoidaning mavjudligi [Abdullayev 2021: 45–46] yoki rus tilining kirill alifbosidagi barcha harflarning nemis tilidagi amaliy transkripsiya jadvali [Drosdowski 1991: 82; Scholze-Stubenrecht 1997: 86] yoki ingliz tilidagi [ð], [θ] fonemalarini beruvchi "TH" digrafemi yoxud rus tilidagi "III" harfi uchun ularning o'zbek tilidagi yagona transkripsiya variantlarini ishlab chiqish kabi;

O'zbek tiliga xos bo'lmagan tovush birikmalari yoki tovushlar moslashtirilayotganda "oltin o'rtalik" tamoyiliga rioya qilinishi lozimligi. Bunda fonetik-orfografik moslashtirishlar, bir tomondan, haddan tashqari soddalashtirilmasligi, shu bilan birga transkripsiya bilan shug'ullanuvchi shaxslarning ortiqcha murakkablashtirishlari tufayli sun'iy, subyektiv talaffuz shakllariga olib kelmasligi kerak. Aks holda, birinchi holatda asl

talaffuzdan jiddiy chetlanish, ikkinchi holatda esa sun'iy ixtirolar va foydalanuvchilarda talaffuzdagi qiyinchiliklar va begonalashuv yuzaga kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Abdulgayrov M. Asliyat va tabdil muammolari. Navoiy asliyati tabdillari. — T.: Adast Poligraf, 2023. — 205 b.
- Abjalova M., Geldiyeva X. O'zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes sohadagi neologizmlar. // O'zbekiston: Til va madaniyat. — 2022. — № 2 (1). — B. 47–63.
- Islomov S. R. O'zbek tili alifbosi islohoti–yangicha yondashuv. // Academic research in educational sciences. — 2024. — № 5(2) — B. 29–49. — URL: <https://ares.uz/en/maqola-sahifasi/ozbek-tili-alifbosi-islohoti-yangicha-yondashuv> (Murojaat sanasi: 08.04.2025).
- Жамолхонов Х., Сапаев Қ. Имло муаммолари. — Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2007 — 191 б.
- Jomonov R. So'z o'zlashtirishning nolisoniy omillari. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2014. — № 1. — B. 40–45. — URL: <https://journal.fledu.uz/uz/suz-uzlashtirishning-nolisonij-omillari/> (Murojaat sanasi: 15.04.2025).
- Nuritdinova N. Fransuz tilidagi burun tovushli so'zlarni O'zbek tiliga transliteratsiya qilish masalalari. // Worldly knowledge konferens. — 2024. — № 8(2) — P. 110–113.
- Sodiqov Q. (2017). Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. — T.: TDSHI, 2017 — 216 b.
- Tog'ayev T. O'zbek tilining imlo muammolari. — T.: Navoiy Universiteti NMU, 2019 — 164 b.
- Abdullaev Z. (2021). Usbekische Personennamen-Etymologie, Grammatik, Pragmatik. Dissertation — Regensburg. — 308 p.
- ALA-LC Romanization Tables. American Library Association & Library of Congress. Uzbek Romanization Table. — 2017. URL: <https://www.loc.gov/catdir/cpsd/romanization/uzbek.pdf>. (Murojaat sanasi: 17.10.2024).
- BS 2979: 1958. Transliteration of Cyrillic and Greek characters. BSI British Standards Institution & Chemical Abstracts Service. — 1958.
- Bussmann H., Hartmut L. Lexikon der Sprachwissenschaft. 4. Aufl. — Stuttgart: Alfred Kröner Verlag, 2008. — 863 p.
- DIN 1460-2:2010. Umschrift kyrillischer Alphabete. / Teil 2: Umschrift kyrillischer Alphabete nicht-slavischer Sprachen. // Albrecht R., Wiesner H. J./ Eds. Umschrift in Bibliotheken. Anwendung, Verfahren, Tabellen. — Berlin: Beuth Verlag GmbH, 2011 — 29 p.
- Drosdowski G. Duden, Rechtschreibung der deutschen Sprache. 20., Völlig neu bearb. und erw. Aufl. — Mannheim: Dudenverlag, 1991. — 832 p.
- GOST 7.79-2000. Межгосударственный стандарт «Правила транслитерации кирилловского письма латинским алфавитом. Система стандартов по информации, библиотечному и издательскому

- делу». Межгосударственный совет по стандартизации, метрологии и сертификации. — Минск. — 2000.
- Islomov S. R., Jumaniyozov Z. O. Transliteration und Transkription im Usbekischen. Eine praxisbezogene Analyse. // *Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.* / Jumaniyozov Z.O. / ed. — Urganch: Khwarezm Publication, 2024. — P. 235–260.
- ISO 9: 1995. International Standard. Information and documentation — Transliteration of Cyrillic characters into Latin characters — Slavic and non-Slavic languages. Second edition. / International Organisation for Standardization. / ed. — 1995.
- Paraschkewow B. Transkription und Transliteration: Zur schriftlichen Wiedergabe deutscher Eigennamen im Bulgarischen und Russischen. // Barry W.J., Mangold M. eds. *Festschrift für Max Mangold zum 80. Geburtstag.* — Saarbrücken: Inst. für Phonetik, Univ. d. Saarlandes, 2002. — P. 181–190.
- Schulze-Stubenrecht, Werner. *Duden, Rechtschreibung der deutschen Sprache.* 21., Völlig neu bearb. und erw. Aufl. — Mannheim: Dudenverlag, 1997 — 910 p.
- Суперанская А. В. Теоретические основы практической транскрипции. — М.: Наука, 1978. — 288 с.
- Zekalle, R. Transkription und Transliteration kyrillischer Buchstaben. // *Pedobiologia.* — Berlin: 1964 — 4. — P. 88–91.

References

- Abdullaev, Z. (2021). *Usbekische Personennamen-Etymologie, Grammatik, Pragmatik* (Uzbek Personal Names: Etymology, Grammar, Pragmatics), PhD Thesis, Regensburg.
- Abdulxayrov, M. (2023). *Asliyat va tabdil muammolari* (Problems of originality and translation), Tashkent, Adast Poligraf.
- Abjalova, M. & Geldiyeva, X. (2022). *Uzbekistan: Til va madaniyat*, No. 2 (1), 47–63. (In Uzb.)
- ALA-LC Romanization Tables (2017). *American Library Association & Library of Congress. Uzbek Romanization Table.* Available at: <https://www.loc.gov/catdir/cpsd/romanization/uzbek.pdf>. (accessed 17.10.2024)
- Albrecht, R. & Wiesner, H. J. (eds.). (2011). *DIN 1460-2:2010. Umschrift kyrillischer Alphabete. Teil 2: Umschrift kyrillischer Alphabete nicht-slawischer Sprachen* (DIN 1460-2:2010. Transliteration of Cyrillic Alphabets. Part 2: Transliteration of Cyrillic Alphabets of Non-Slavic Languages), Berlin, Beuth Verlag GmbH.
- BS 2979: 1958. (1958). *Transliteration of Cyrillic and Greek characters.* BSI British Standards Institution & Chemical Abstracts Service.
- Bussmann, H. & Hartmut, L. (2008). *Lexikon der Sprachwissenschaft* (Lexicon of Linguistics), Stuttgart, Alfred Kröner Verlag.
- Drosdowski, G. (1991). *Duden, Rechtschreibung der deutschen Sprache* (Duden: Orthography of the German Language), Mannheim: Dudenverlag.

- GOST 7.79-2000. (2000). *Mezhdgosudarstvennyĭ standart. Pravila transliteratsii kirillovskogo pis'ma latinskim alfavitom. Sistema standartov po informatsii, biblioteknomu i izdatel'skomu delu. Mezhdgosudarstvennyi sovet po standartizatsii, metrologii i sertifikatsii* (GOST 7.79-2000. Interstate Standard. Rules for the Transliteration of Cyrillic Script Using the Latin Alphabet. System of Standards on Information, Librarianship, and Publishing. Interstate Council for Standardization, Metrology and Certification), Minsk.
- Islomov, S. R. (2024). *Academic research in educational sciences*, No. 5(2), 29–49. Available at: <https://ares.uz/en/maqola-sahifasi/ozbek-tili-alifbosi-islohoti-yangicha-yondashuv> (accessed 08.04.2025). (In Uzb.)
- Islomov, S. R. & Jumaniyozov, Z. O. (2024). *Qiyosiy adabiyotshunoslik, cho'g'ishtirma tilshunoslik va tarjimaşunoslikning dolzarb masalalari. Halqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari* (Current Issues in Comparative Literature, Contrastive Linguistics, and Translation Studies. Materials of the International Scientific and Practical Conference), Urgench, Khwarezm Publication. (In Ger.)
- ISO 9: 1995. (1995) International Standard. Information and documentation. *Transliteration of Cyrillic characters into Latin characters — Slavic and non-Slavic languages*. International Organisation for Standardization.
- Jamolhonov, H. & Sapaev, Q. (2007). *Imlo muammolari* (Problems of orthography). Tashkent, Nizomiy nomidagi TDPU.
- Jomonov, R. (2014). *Foreign languages in Uzbekistan*, No.1 40–45. Available at: <https://journal.fledu.uz/uz/suz-uzlashtirishning-nolisonij-omillari/> (accessed 15.04.2024). (In Uzb.)
- Nuritdinova, N. (2024). *Worldly knowledge konferens*, No. 8(2), 110-113. (In Uzb.)
- Paraschkewow, B. (2002). *Festschrift für Max Mangold zum 80. Geburtstag* (Festschrift in Honor of Max Mangold on the Occasion of His 80th Birthday), Saarbrücken, Inst. für Phonetik, Univ. d. Saarlandes. (In Ger.)
- Schölze-Stubenrecht, W. (1997). *Duden, Rechtschreibung der deutschen Sprache* (Duden: Orthography of the German Language), Mannheim: Dudenverlag.
- Sodiqov, Q. (2017). *Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari* (Fundamentals of textual studies and source studies), Tashkent, TDSHI.
- Superanskaya, A.B. (1978). *Teoreticheskie osnovy prakticheskoi transkripsii* (Theoretical Foundations of Practical Transcription), Moscow, Nauka.
- Tog'ayev, T. (2019). *O'zbek tilining imlo muammolari* (Orthographical Problems of Uzbek language), Tashkent, Navoiy Universiteti NMU.
- Zekalle, R. (1964). *Pedobiologia*, Berlin, No. 4, 88–91. (In Ger.)